
Chop etilishi lozim bo'lgan axborot materiallari ro'yxati

Farg'ona viloyati hokimining
"12" mart 2018 yildagi
№ 112 sonli farmoyishiga 4-ilova

Farg'ona viloyati hokimligi faoliyati to'g'risidagi e'lon qilinishi (chop etilishi) lozim bo'lgan axborot materiallari

RO'YXATI

- 1.Viloyat hokimligining huquqiy maqomini belgilovchi normativ-huquqiy xujjatlar.
- 2.Viloyat hokimligi tomonidan qabul qilingan qarorlar hamda boshqa hujjatlar, shuningdek, ularning ijro etilishining borishi to'g'risidagi ma'lumotlar.
- 3.Viloyat hokimligi tomonidan qabul qilingan qarorlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ushbu hujjatlarni o'z kuchini yo'qotgan deb topish to'g'risidagi ma'lumotlar.
- 4.Viloyat hokimligi tomonidan ishlab chiqilayotgan qarorlarning loyihalari to'g'risidagi ma'lumotlar.
- 5.Viloyat hokimligi tomonidan davlat dasturlari hamda boshqa dasturlar amalga oshirilishi to'g'risidagi ma'lumotlar.
- 6.Farg'ona viloyati hokimligi tomonidan o'tkaziladigan ommaviy tadbirlar (*majlislar, kengashlar, uchrashuvlar, matbuot konferentsiyalari, brifinglar, seminarlar, davra suhbatlari va boshqalar*) to'g'risidagi ma'lumotlar.
- 7.Farg'ona viloyati hokimligining jismoniy va yuridik shaxslar, shuningdek, xorijiy va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi to'g'risidagi ma'lumotlar.
- 8.Amalga oshirilishida viloyat hokimligi ishtirok etayotgan O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risidagi ma'lumotlar.
- 9.Chorak hamda yil yakunlari bo'yicha viloyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur'atini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar to'g'risidagi ma'lumotlar.
- 10.Viloyat hokimligi tomonidan o'tkaziladigan (tashkil etiladigan) ochiq tanlovlar (tenderlar) va kimoshdi savdolari to'g'risidagi ma'lumotlar.
- 11.Bo'sh ish o'rinlari, ishga qabul qilish shartlari va bo'sh ish o'rinlarini egallash uchun nomzodlarga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi ma'lumotlar.
- 12.Viloyat hokimligi tomonidan tuzilgan muvofiqlashtiruvchi va maslahat organlari to'g'risidagi ma'lumotlar.
- 13.Viloyat hokimligida o'tkaziladigan chorak yakunlariga bag'ishlangan faollar yig'ilishi, xalq deputatlari viloyat Kengashi sessiyalari (ochiq majlislar)ni o'tkazish rejaları, shu jumladan yig'ilishlarning kun tartibi.

2018-03-13 16:07:13